

“Kasbiy imtihonlar bo‘yicha asosiy baholash mezonlari” uslubiy qo‘llanma – Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, 2025-yil

Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti Ilmiy kengashining 2025-yil 26-avgustdagi 8-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada Malakani baholash markazlari tomonidan tashkil qilinadigan kasbiy imtihonlarni adolatli baholashning muhimligi hamda baholashning asosiy mezonlari bayon qilingan. Ushbu qo‘llanmadan to‘g‘ri foydalanish imtihon jarayonining shaffofligi, adolatliligi va xolisligini ta‘minlaydi. Kasbiy imtihonlar tizimini samarali tashkil etishda yagona talablar asosida baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Uslubiy qo‘llanma Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika va tarmoq kengashlari, ta‘lim tashkilotlari, malakani baholash markazlari va milliy malaka tizimiga aloqador mutaxassislar hamda ekspertlar tomonidan metodik ta‘minot sifatida qo‘llanilishi mumkin.



@ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini ta‘minlash milliy agentligining Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, 2025-yil

Mundarija

Kirish	4
1. Baholash mezonlari tushunchasi va ahamiyati	7
2. Malakani baholash markazlari tomonidan o‘tkaziladigan kasbiy imtihonlarni tashkil qilish	11
3. Kasbiy imtihonning nazariy qismi uchun asosiy baholash mezonlari	16
4. Kasbiy imtihonning amaliy qismi uchun asosiy baholash mezonlari	19
5. Kasbiy imtihon natijalarini hisoblash va qayd qilish	23
Xulosa	33
Foydalanilgan manbalar	36
Ilovalar	37

Kirish

Hozirgi zamon globallashuv va tezkor texnologiyalar taraqqiyoti davrida mehnat bozori barqaror ravishda o'zgarib bormoqda. Bu jarayonda mutaxassislardan nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar va kasbiy mahorat ham talab etiladi. Shunday sharoitda malakani baholash tizimining eng asosiy qismlaridan biri bo'lgan **kasbiy imtihonlarning** adolatli, xolis va shaffof tarzda tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Kasbiy imtihonlar orqali talabgorlarning muayyan sohadagi bilim va ko'nikmalari tekshiriladi, ularning kasbiy standartlarga qay darajada mos ekanligi aniqlanadi. Shu bois, imtihon jarayonida asosiy **baholash mezonlarini ishlab chiqish** muhim vazifalardan biri hisoblanadi.




Baholash mezonlari – bu talabgorning bilim va ko'nikmalarini baholashda qo'llanadigan asosiy ko'rsatkichlar, talablar va mezonlar yig'indisidir. Ular orqali imtihon natijalari aniq va xolis tarzda baholanadi, talabgorlar o'rtasida teng sharoit ta'minlanadi. Agar imtihon jarayonida mezonlar

aniq belgilanmagan bo'lsa, baholash subyektiv fikrlarga asoslanib qolishi mumkin. Bu esa kadrlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar yetishib chiqishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, baholash mezonlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish kasbiy imtihonlar tizimining barqaror va samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asosiy shartlardan hisoblanadi. Baholash mezonlarining asosiy maqsadi – har bir o'quv natijasiga erishish darajasini belgilashda aniq va mukammal mezonlarni o'rnatishdan iboratdir. Ushbu mezonlar talabgor tomonidan

o'quv natijasiga erishilganini isbotlash uchun bajarilishi shart bo'lgan aniq harakatlar, amaliy ishlar yoki ko'rsatkichlarni ifodalashi lozim.¹

Asosiy baholash mezonlari, avvalo, milliy kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi. Chunki har bir sohada belgilangan standartlar mavjud bo'lib, ular orqali mutaxassisning qaysi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarurligi ko'rsatiladi. Mazkur standartlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan mezonlar imtihon jarayonida yagona talablarni ta'minlaydi va talabgorning tayyorgarlik darajasini aniq baholash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, baholash mezonlarini ishlab chiqishda xalqaro tajribadan ham samarali foydalanish zarur. Chunki bu orqali milliy malakalar tizimi xalqaro standartlarga uyg'unlashtiriladi va mahalliy mutaxassislarning diplom va sertifikatlari jahon miqyosida tan olinishiga sharoit yaratiladi.



Baholash mezonlarini ishlab chiqishning yana bir muhim jihati – bu **shaffoflik va adolat** tamoyillarini ta'minlashdir. Talabgor uchun

qaysi ko'nikmalar va bilimlar asosida baholanishi oldindan ochiq va tushunarli bo'lishi kerak. Bu esa imtihon jarayonida ishonchni kuchaytiradi, talabgorlarning tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etishiga yordam beradi. Baholash mezonlari orqali imtihon jarayonida xatolar va adolatsizlik ehtimoli kamayadi, baholash natijalari esa asosli va haqqoniy hisoblanadi.

Shuningdek, asosiy baholash mezonlarini ishlab chiqish natijalarni **taqqoslash imkoniyatini** ham beradi. Masalan, turli o'quv muassasalarida tahsil olgan Talabgorlarning tayyorgarlik darajasini solishtirish mumkin bo'ladi. Bu ta'lim tizimi

¹ D.Gosling, J. Moon. How To Use Learning Outcomes and Assessment Criteria. SEEC.
<https://scribd.com/document/228752475/How-to-Use-Learning-Outcomes-and-Assessment-Criteria>

samaradorligini baholash, uni takomillashtirish va mehnat bozori talablariga uyg'unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur muhim jihatlarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 30-sentyabrdagi PQ-345-son qarorida² malakalarni baholash markazlarini uslubiy qo'llab-quvvatlash maqsadida asosiy baholash mezonlarini ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Shu sababli ham, mazkur baholash mezonlari Malakani baholash markazlari tomonidan o'tkaziladigan kasbiy imtihonlarda talabgorlarning bilimi, ko'nikma va malakasini adolatli, shaffof va yagona standartlar asosida baholashni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan va qo'llaniladi.

Mezonlarni ishlab chiqish jarayonida ularni ikki yo'nalishda belgilash zarur: nazariy bilimlarni baholash mezonlari va amaliy ko'nikmalarni baholash mezonlari. Nazariy imtihonlar uchun asosiy mezonlar bilimlarning chuqurligi, to'g'ri va aniq javob berish qobiliyati, tushunchalarni mantiqiy ifodalashga qaratilsa, amaliy imtihonlarda esa kasbiy vazifalarni bajarish mahorati, asbob-uskunalardan to'g'ri foydalanish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va natija sifati asosiy mezon sifatida belgilanadi. Bu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirish orqali talabgorning haqiqiy kasbiy salohiyati kompleks tarzda baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy imtihonlar bo'yicha asosiy baholash mezonlarini ishlab chiqish – bu nafaqat imtihon jarayonining adolatli va shaffof o'tishini ta'minlaydi, balki kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, milliy malakalar tizimining xalqaro nufuzini ko'tarish, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 30.09.2024-yildagi, PQ-345-son qarori. <https://lex.uz/docs/7132752>

1. Baholash mezonlari tushunchasi va ahamiyati

Kasbiy imtihonlar inson kapitalini rivojlantirish va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim vositasi hisoblanadi. Baholash mezonlarini ishlab chiqish esa ushbu jarayonning asosiy poydevorini tashkil qiladi. Chunki aniq mezonlarsiz imtihon jarayonida subyektivlik ustuvor bo'lib qolishi, natijalarda adolatsizlik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli mezonlarni ilmiy asoslangan, kasbiy standartlarga uyg'un va metodik jihatdan to'g'ri ishlab chiqish muhimdir.

Hozirgi kunda jahon mehnat bozori jadal sur'atlarda rivojlanib, kasbiy bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar kundan-kunga ortayapti. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bunday sharoitda malakani baholash tizimini takomillashtirish, ayniqsa kasbiy imtihonlarni shaffof va adolatli tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Kasbiy imtihonlar – bu talabgorning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini tekshirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu imtihonlarning xolis va ishonchli o'tkazilishi uchun baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur.

Baholash mezonlari – bu talabgorning kasbiy tayyorgarlik darajasini baholashda qo'llaniladigan aniq talablar, ko'rsatkichlar va ko'nikmalar yig'indisidir. Ular imtihon jarayonida qaysi bilim, mahorat va ko'nikmalar tekshirilishi, qaysi usullar asosida baholanishi aniq belgilab beradi. Shuningdek, Baholash mezonlari qaror qabul qilishda obyektiv va dolzarb omillarga tayanishni ta'minlaydi hamda turli variantlarni



taqqoslash imkonini beradi. Ular baholanayotgan obyektning muvaffaqiyati va sifati uchun muhim hisoblangan aniq ko'rsatkichlarga yo'naltirilgan bo'lishi shart.³

Mezonlarni ishlab chiqish orqali:

imtihon jarayonida adolat va xolislik ta'minlanadi;

barcha talabgorlar uchun teng sharoit yaratiladi;

natijalarning shaffofligi va ishonchliligi ta'minlanadi;

kadrlar tayyorgarlik darajasi mehnat bozori talablariga uyg'unlashtiriladi.

Baholash mezonlarini ishlab chiqish zaruriyatini quyidagi omillar bilan ifodalash mumkin:

Yagona standartni ta'minlash. Agar mezonlar aniq belgilanmasa, imtihon jarayonida subyektivlikka yo'l qo'yilishi mumkin. Masalan, bir talabgorning ishini yuqori, boshqasini esa past baholash holatlari kuzatilishi mumkin. Baholash mezonlari esa yagona standartlarni belgilaydi va barcha talabgorlar teng talab asosida baholanadi.

Shaffoflik va ishonch. Imtihondan oldin talabgorlarga qaysi mezonlar asosida baholanishi tushuntirilishi kerak. Bu jarayonda shaffoflikni ta'minlaydi, talabgorlarning ishonchini oshiradi. Natijada, ular tayyorgarlikni maqsadli tashkil qiladilar.

Kasbiy standartlarga uyg'unlik. Har bir sohada belgilangan kasbiy standartlar mavjud. Baholash mezonlari aynan shu standartlar asosida ishlab chiqilsa, imtihon natijalari mehnat bozoridagi real talablarga mos keladi. Bu esa kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Ta'lim natijalarini baholash imkoniyati. Aniq mezonlar asosida olingan imtihon natijalari orqali turli o'quv muassasalarida tayyorlangan mutaxassislar

³ Glossary: Evaluation criteria: Overview, definition, and example. <https://www.cobrief.app/resources/legal-glossary/evaluation-criteria-overview-definition-and-example/>

darajasini solishtirish mumkin. Bu orqali ta'lim dasturlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Xalqaro e'tirof uchun asos. Xalqaro standartlarga uyg'un mezonlar ishlab chiqilsa, milliy malakalar tizimi jahon hamjamiyatida tan olinadi. Bu nafaqat mamlakat ichida, balki xorijda ham mutaxassislarimizning diplom va sertifikatleri qiymatini oshiradi. Shuningdek, baholash mezonlaridan foydalanish manfaatdor tomonlar o'rtasida muloqotni yaxshilaydi, chunki u muhokama va qaror qabul qilish uchun aniq va obyektiv asosni ta'minlaydi.⁴

Baholash mezonlari ikki yo'nalishda ishlab chiqilishi kerak:

Nazariy imtihon mezonlari: bilimlarning chuqurligi, tushunchalarni mantiqiy ifodalash, savollarga aniq va qisqa javob berish, atamalardan to'g'ri foydalanish.

Amaliy imtihon mezonlari: topshiriqni samarali bajarish, asbob-uskunalardan xavfsiz foydalanish, ish jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qilish, natija sifati, vaqtdan unumli foydalanish.

Bu ikki yo'nalish uyg'unlashtirilganda, talabgorning haqiqiy kasbiy salohiyati to'liq va xolis baholanadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmada baholash mezonlaridan foydalanish quyidagi ikki tamoyillarga asoslangan bo'lishi lozimligi belgilangan:⁵

1-jadval

Baholash mezonlaridan foydalanish tamoyillari

№	Tamoyil nomi	Ta'rifi	Amaliyotda qo'llanilishi
1	Aniqlik va maqsadga yo'naltirilganlik	Mezonlar yuqori sifatli va foydali baholashni ta'minlash uchun mazmun	Baholash savollari aniqlanadi, javoblardan qanday maqsadda

⁴ Ibrahim M. Achieving Clear Requirements and Objective Assessment: The Benefits of Acceptance and Evaluation Criteria in Business Analysis. <https://www.linkedin.com/pulse/achieving-clear-requirements-objective-assessment-benefits-mar>

⁵ OECD: DAC Guidelines and Reference Series. Quality Standards for Development Evaluation. 2010. <https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/development-co-operation-evaluation-and-effectiveness/evaluation-criteria.html>

		va manfaatdor tomonlar ehtiyojidan kelib chiqib qo‘llaniladi.	foydalanilishi belgilab olinadi.
2	Maqsadga moslashuvchanlik	Mezonlar bir tomonlama tarzda emas, balki baholashning maqsadi va vaziyatiga mos holda qo‘llaniladi.	Manfaatdor tomonlar talablari va sharoitdan kelib chiqib mezonlar tanlanadi va qo‘llaniladi.

Kasbiy imtihon uchun baholash mezonlarini ishlab chiqish – malakani baholash tizimining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Aniq mezonlarsiz imtihon jarayonida subyektivlik va adolatsizlik xavfi yuqori bo‘ladi. Mezonlar esa barcha uchun teng talablarni belgilab, imtihon natijalarini ishonchli va asosli qiladi. Shu bilan birga, ular ta’lim tizimini takomillashtirish, kadrlar sifatini oshirish va milliy malakalar tizimini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli, kasbiy imtihon uchun baholash mezonlarini ishlab chiqish – bu nafaqat imtihon jarayonining shaffofligi va adolatini ta’minlaydi, balki iqtisodiyot rivojiga munosib hissa qo‘shadigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorgarligini aniqlashning asosiy kafolatlaridan hisoblanadi.

2. Malakani baholash markazlari tomonidan o'tkaziladigan kasbiy imtihonlarni tashkil qilish

Kasbiy imtihon – bu muayyan kasb yoki ixtisoslik bo'yicha talabgorning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va kasbiy mahorat darajasini tekshirish va baholash jarayonidir. Uning asosiy maqsadi – talabgorning kasbiy standartlarda belgilangan talablarga qanchalik javob bera olishini aniqlash va uning malakalik darajasini belgilashdan iborat. Malakani mustaqil baholashda kasbiy imtihonlarning samarali tashkil qilinishi talabgorlar haqiqiy bilim va ko'nikmalarini aniqlashni ta'minlaydi. Malakani baholash jarayoni bilim va ko'nikmalarni qo'llashga tayyorlikni namoyon etish, ish joyida zarur harakatlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratishni anglatadi. Bu harakatlar ma'lum bir natija (mahsulot)ga erishishga olib keladi yoki mehnat (kasbiy) faoliyat jarayonining mazmunli tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.⁶

Kasbiy imtihonning maqsadlari:

- Kadrlar sifatini baholash – talabgorning bilim va ko'nikmalarini ish beruvchi va mehnat bozori talablariga uyg'un holda tekshirish.

- Malaka darajasini tasdiqlash – talabgorning qaysi malaka darajasiga mos kelishi aniqlanadi.

- Kasbiy standartlarga uyg'unlik – imtihon orqali mutaxassisning davlat yoki sohaviy standartlarda belgilangan talablarga qanchalik javob bera olishi baholanadi.

- Shaffof va adolatli baholash – talabgorlar o'rtasida teng sharoit va xolis baholashni ta'minlash.

Kasbiy imtihonning qismlari:



⁶ Г. П. Синицына. Профессиональный экзамен: подходы к структуре и содержанию. Гуманитарные исследования, 2015. № 5 (9) стр 89
· <https://cyberleninka.ru/article/n/professionalnyy-ekzamen-podhody-k-strukture-i-soderzhaniyu/viewer>

Nazariy qism – talabgorning nazariy bilimlari test savollari, yozma ish yoki og‘zaki suhbat asosida baholanadi.

- Amaliy qism – talabgorning kasbiy vazifalarni amalda bajara olish qobiliyati tekshiriladi. Bunda asbob-uskunalaridan foydalanish, ish jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va ish natijasi sifati muhim mezon hisoblanadi.

Kasbiy imtihonlarni tashkil qilishning quyidagi afzalliklari mavjud:

- **Mehnat bozori uchun yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.**

- **Talabgorning kasbiy salohiyatini xolis baholash imkonini beradi.**

- **Ta’lim muassasalarida berilgan bilimlar va mehnat bozori talablari uyg‘unligini ko‘rsatib beradi.**

- **Milliy malakalar tizimining samarali ishlashi va xalqaro standartlarga mos kelishiga yordam beradi.**

Malakani baholash markazlarida kasbiy imtihon nazariy (test sinovi yoki suhbat) va amaliy imtihon shakllarida o‘tkaziladi. Bunda nazariy va amaliy imtihonlar o‘tkaziladigan vaqt oralig‘i ko‘pi bilan ikki ish kunini tashkil etishi lozim.⁷

Kasbiy imtihonlar kasb (kvalifikatsiya) xususiyatidan kelib chiqqan holda zarur infratuzilma bilan ta’minlangan texnoparklar, soha korxonalari hamda ta’lim tashkilotlarining ishlab chiqarish bazalari, poligonlari, ustaxonalari, laboratoriya va boshqa moddiy-texnika vositalari bilan ta’minlangan binolarda o‘tkaziladi. Nazariy va amaliy imtihonlar uchun tayyorlangan texnikalar, asbob-uskunalar, yetarli materiallar mavjudligi, topshiriqlarni bajarishda talabgorlarga teng imkoniyatlar yaratilganligi kasbiy imtihon boshlanishidan oldin baholash komissiyasi tomonidan tekshiriladi.

Nazariy imtihon shakli:

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 17.06.2025-yildagi 369-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/7577924>

Malakani mustaqil baholashda kasbiy imtihon dastlab nazariy imtihonni o'z ichiga oladi. Malakani baholash markazlari nazariy imtihon uchun zarur sharoitlar yaratib beradi.

Nazariy imtihon shakli uchun test savollari va topshiriqlar baholash vositalarida keltiriladi.

Nazariy imtihon davomida talabgor tomonidan boshqalar bilan gaplashish, ko'chirmachilik, turli elektron qurilmalardan foydalanish kabi qoidabuzarliklar aniqlanganda, talabgor bir marotaba og'zaki ogohlantiriladi, qoidabuzarlik takrorlansa talabgor imtihondan chiqarib yuboriladi hamda talabgorga nazariy imtihondan ball qo'yilmaydi.

Nazariy imtihon jarayoni turli texnik sabablar (internet, elektr, kompyuterdagi uzilishlar, videoyozuv yoki translyatsiyaga olishdagi uzilishlar)ga ko'ra to'xtatilsa, talabgorga takror imtihon topshirishga ruxsat beriladi.

Nazariy imtihon test sinovi ko'rinishida tashkil qilinsa, unda test savollari quyidagi 2-jadvalda belgilangan talablarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim:

2-jadval

Kasbiy imtihonning nazariy qismi uchun ishlab chiqiladigan test savollariga qo'yiladigan talablar

T/r	Talablar
1	Savollar kasbiy standartda belgilangan malaka darajasiga mos bilim va ko'nikmalarni baholashni qamrab olishi
2	Savolda texnik atamalar, birliklar, formulalar va belgilarning to'g'ri qo'llanishi
3	Savol matni sodda, ravon va bir xil ma'noda talqin qilinadigan tarzda yozilishi
4	Savollar matnida ortiqcha, chalg'ituvchi yoki tushunarsiz so'zlarni ishlatmaslik
5	Javob variantlari soni kamida 4 ta bo'lishi (yopiq, chizmalı, keysli va tahlil qilishga oid savollar bundan mustasno)

6 Javob variantlari tartibi tasodifiy yoki aralash holda joylashtirilishi

7 Test topshiriqlari ishtirokchining faqat yod olgan bilimlarini emas, balki tahlil qilish, qiyoslash va muammoga yechim topish qobiliyatini ham tekshirishi

8 Kasbga oid mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalari bo'yicha savollarning bo'lishi

9 Kasbga doir me'yoriy va huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni bilishini aniqlashga qaratilgan savollarning mavjudligi

10 Savollarda millat, irq, jins, din, siyosiy yoki ijtimoiy mansublikka oid diskriminatsiya bo'lmasligi

Kasbiy imtihon nazariy qismi suhbat (og'zaki) yoki yozma shaklda tashkil qilinishi ko'zda tutilganda, baholash vositalarida savollar bilan birga etalon javoblar ham tayyorlangan bo'lishi va ularning maxfiyligi ta'minlangan bo'lishi lozim.

Amaliy imtihon shakli:

Amaliy imtihon boshlanishidan oldin baholash komissiyasi a'zolaridan biri talabgorlarni topshiriq mazmuni, texnik shartlar, baholash mezonlari, ajratilgan vaqt me'yori va texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiradi.

Talabgorlarga amaliy topshiriqlarni bajarishi uchun teng imkoniyatlar va bir xil vaqt me'yorlari taqdim qilinadi.

Amaliy imtihon o'tkazilayotgan joy xususiyatidan kelib chiqib barcha talabgorlarga amaliy topshiriqlarni birdaniga o'tkazishning imkoni bo'lmasa, talabgorlar baholash komissiyasi belgilagan tartib asosida imtihonga kiritiladi va qolganlar esa baholash komissiyasi belgilagan joyda kutishadi.

Malakani baholash markazlari tomonidan amaliy imtihon shakli zarur sharoitlar mavjud texnoparklar, tegishli soha korxonalari, ishlab chiqarish bazalari, poligonlari, ustaxonalari, laboratoriyalarda o'tkazilishi mumkin.



Kasbiy imtihon o'tkazilayotgan joyga begona shaxslarning kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Kasbiy imtihon o'tkazilayotgan joyga begonalarining kirmasligi, talabgorlar imtihon jarayoni davomida o'sha joyni tark etmasligi baholash komissiyasi tomonidan

nazorat qilinadi.

Talabgorlar malakani mustaqil baholash jarayonida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalari yong'in va sanoat xavfsizligi, sanitariya-gigiyena me'yorlari sohasidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilish shart. Malakani baholash markazi direktori kasbiy imtihon davomida barcha talabgorlarga zarur sharoitlar yaratishga va ularni yetarli materiallar bilan ta'minlashga mas'ul hisoblanadi.

Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, kasbiy imtihonlar mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini aniqlash, ularning kasbiy standartlarga qay darajada javob berishini baholashning eng ishonchli vositasidir. Shuning uchun ham, ularni samarali tashkil qilish orqali talabgorlarning haqiqiy bilim va amaliy ko'nikmalarini aniqlash imkoni yaratiladi va bu orqali mehnat bozori uchun raqobatbardosh va sifatli kadrlar tayyorlashga asosiy zamin hozirlanadi.

3. Kasbiy imtihonning nazariy qismi uchun asosiy baholash mezonlari

Kasbiy imtihonlar tizimida nazariy qism muhim o‘rin tutadi, chunki u talabgorning bilim darajasini, nazariy asoslarni qay darajada o‘zlashtirganini aniqlash imkonini beradi. Nazariy bilimlar har qanday kasbiy faoliyatning poydevori hisoblanadi. Shuning uchun uni adolatli va xolis baholash uchun aniq mezonlarni ishlab chiqish zarur.

Birinchi navbatda, nazariy imtihon mezonlari talabgorlarning bilimlarini izchil, xolis va standart asosida baholash imkonini yaratadi. Masalan, test savollariga javob berishda bilimlarning to‘g‘riligi, tushunchalarni izohlashda mantiqiy fikrlash va atamalardan to‘g‘ri foydalanish mezon sifatida belgilanishi mumkin. Bu esa imtihon jarayonida subyektivlikka yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qiladi.



Ikkinchidan, nazariy baholash mezonlari orqali talabgorning bilimlari kasbiy standartlarga uyg‘unligi aniqlanadi. Har bir kasb yoki sohada belgilangan standartlar mavjud va nazariy imtihon shu standartlar asosida tashkil etilganda, natijalar mehnat bozori talablariga javob beradi.

Uchinchidan, mezonlar talabgorlar uchun ham muhim yo‘nalish vazifasini bajaradi. Chunki ular qaysi bilim va ko‘nikmalar asosida baholanishini oldindan biladi, o‘z tayyorgarligini maqsadli tashkil etadi. Bu esa ularning bilimlarni samarali o‘zlashtirishiga turtki bo‘ladi.⁸

Kasbiy imtihonning nazariy qismi suhbat (og‘zaki) yoki yozma shaklda tashkil qilinganda, baholash vositalarida savollar bilan birga etalon javoblar ham tayyorlangan bo‘lishi va ularning maxfiyligi ta‘minlanishi lozim. Kasbiy imtihon nazariy qismi suhbat (og‘zaki) yoki yozma shaklda tashkil qilinganda 100 ballik tizimda quyidagi jadvallarda keltirilgan mezonlar asosida baholash amalga oshirilishi lozim:

⁸ Лаврентева Е.А., Афонина К.Д. Организационно-теоретические основы независимой оценки квалификации работников. БИТ 2022 Том 6 № 1 (21). Стр-38
. <https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsionno-teoreticheskie-osnovy-nezavisimoy-otsenki-kvalifikatsii-rabotnikov>

3-jadval

**Kasbiy imtihon nazariy qismining suhbat (og‘zaki) shakli uchun
BAHOLASH MEZONLARI (100 ball)**

T/r	Mezonlar	Maksimal ball
1	Kasbga oid asosiy nazariy bilimlarini to‘g‘ri va to‘liq ifodalash	15 ball
2	Terminologiya va atamalardan to‘g‘ri foydalanish	10 ball
3	Me‘yoriy va huquqiy talablarni bilish	10 ball
4	Ish jarayonidagi asosiy qoidalar va texnologiyalarni tushuntirish qobiliyati	10 ball
5	Asbob-uskunalarining vazifasi va to‘g‘ri foydalanish qoidalarini bilish	10 ball
6	Amaliy misollar keltirish va ularni tahlil qila olish	10 ball
7	Kasbga oid hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo‘riqnomalar)ni tushuntirib berish	10 ball
8	Muammoli savollarga mantiqiy va asosli javob berish	10 ball
9	Ish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishni bilish	10 ball
10	Savollarga aniq, izchil va ishonchli javob berish	5 ball

4-jadval

**Kasbiy imtihon nazariy qismining yozma shakli uchun
BAHOLASH MEZONLARI (100 ball)**

T/r	Mezonlar	Maksimal ball
1	Savollarga aniq va to‘g‘ri javob berish	15 ball

2	Kasbga oid asosiy nazariy bilimlarni yozma ravishda to'liq ifodalash	10 ball
3	Terminologiya va atamalardan to'g'ri foydalanish	10 ball
4	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va qoidalarni yodda saqlash va yozmada to'g'ri keltirish	10 ball
5	Ish jarayonidagi asosiy qadamlar va texnologiyalarni yozmada to'g'ri bayon etish	10 ball
6	Amaliy misollar keltirish va ularni yozmada tahlil qilish	10 ball
7	Muammoli savollarga mantiqiy va asosli javob yozish	10 ball
8	Yozuvning tuzilishi va izchilligi	10 ball
9	Kasbga oid hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo'riqnomalar)ni to'g'ri bayon etish	10 ball
10	Yozma ishda umumiy uslub, aniqlik va ishonchli bayon	5 ball

Kasbiy imtihonning nazariy qismi testdan iborat bo'lganda test natijasi yakuniy baho uchun asos qilib olinadi. Baholash vositalarida kasb (kvalifikatsiya) xususiyatidan kelib chiqqan holda nazariy bosqichdagi baholash mezonlariga 30 foizgacha o'zgartirish kiritish mumkin. Bunda, belgilangan 3 ta mezonlar o'rniga boshqa mezonlar keltirilishi yoki mavjud 3 ta mezonlardagi ballar kamaytirilgan holda qo'shimcha 2 ta mezonlar va ballar qo'shilishi mumkin hamda jami ballar yig'indisi 100 ballni tashkil qilishi lozim.

Xulosa qilib aytgan bo'lsak, nazariy qism uchun baholash mezonlarini ishlab chiqish imtihon jarayonining adolatliligi, shaffofligi va kasbiy standartlarga uyg'unligini ta'minlaydigan asosiy omildir. U talabgorning bilimlarini xolis baholashga xizmat qiladi va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Kasbiy imtihonning amaliy qismi uchun asosiy baholash mezonlari

Kasbiy imtihonning amaliy qismi talabgorning nazariy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini tekshiradi. Bu bosqichda kasbiy ko‘nikmalar, ish jarayonidagi samaradorlik va xavfsizlikka rioya qilish darajasi baholanadi. Shu bois amaliy qism uchun aniq va xolis baholash mezonlarini ishlab chiqish juda muhim ahamiyatga ega.

Birinchi navbatda, amaliy imtihon mezonlari topshiriqlarni to‘g‘ri va sifatli bajarishga yo‘naltirilishi zarur. Masalan, ish jarayonida qo‘llanadigan asbob-uskunalaridan to‘g‘ri foydalanish, xatolarni kamaytirish va ish natijasining yuqori sifati mezon sifatida belgilanadi. Bu orqali talabgorning amaliy ko‘nikmalari xolis baholanadi.

Ikkinchidan, xavfsizlik qoidalariga amal qilish mezonlardan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Chunki har bir kasbda ish jarayonida sog‘liq va xavfsizlikni ta‘minlash birinchi darajali talab hisoblanadi. Shuning uchun talabgorning xavfsizlik texnikasiga rioya qilishi va ish jarayonida uni to‘g‘ri qo‘llay bilishi baholanishi shart.

Uchinchidan, amaliy imtihon mezonlari vaqtdan unumli foydalanishni ham qamrab olishi kerak. Chunki ko‘plab kasblarda ishni belgilangan vaqtda samarali bajarish raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi. Shuning uchun ish tezligi va samaradorligi asosiy mezon sifatida belgilanishi mumkin.

Shuningdek, talabgorning ijodkorlik va muammolarni yechishda tashabbuskorlik ko‘rsatishi ham mezon sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bu orqali zamonaviy mehnat bozori talab qiladigan yangi fikrlaydigan va muammolarga kreativ yondashadigan kadrlar tayyorlanadi.

Baholash mezonlari oldingi bosqichda aniqlangan baholash obyektlari (faoliyat mahsuloti, faoliyat jarayoni yoki faoliyat mahsuloti va jarayoni)ni hisobga olgan holda ishlab



chiqiladi va ularni ishlab chiqish jarayonida quyidagi savollarga javob berish foydali hisoblanadi:

Topshiriq qanday tarzda (sifatga oid talablarni hisobga olgan holda) bajarilishi kerak?

Qanday bajarish to'g'ri hisoblanadi?

Qanday belgilari orqali muayyan harakatning to'g'ri bajarilganini aniqlaymiz?

Qaysi etalon javoblar (ularni tasdiqlovchi hujjatlar)dan foydalanib, topshiriqning to'g'ri (yoki noto'g'ri) bajarilganini isbotlashimiz mumkin?

Shuningdek, amaliy topshiriqlarni bajarish natijasini baholash mezonlarini shakllantirish quyidagi qoidalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:⁹

Diagnostikalik qoidasi – mazmun ishonchli (ishonch bilan tekshirib bo'ladigan) va obyektiv (shaxsiy fikr yoki alohida mulohazalardan mustaqil) baholashni ta'minlashi lozim;

Kam sonli mezonlar qoidasi – mezonlar soni ko'p bo'lmasligi kerak;

Mezonlarning shaffofligi qoidasi – mezonlarning ifodalanishi faqat imtihonchi (ekspert)lar uchun emas, balki kuzatuvchilar va talabgorlar uchun ham tushunarli bo'lishi zarur.

Kasbiy imtihonning amaliy qismi uchun 100 ballik tizimda asosiy baholash mezonlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

5-jadval

**Kasbiy imtihonning amaliy qismi uchun
BAHOLASH MEZONLARI (100 ball)**

T/r	Mezonlar	Ballar
-----	----------	--------

⁹ Разработка и применение оценочных средств с учетом проведения профессиональных экзаменов с применением цифровых технологий: сборник методических рекомендаций – М. АНО “Национальное агентство развития квалификаций”, 2021. Ст-30.
<https://kos-nark.ru/storage/app/uploads/public/615/aef/7d5/615aef7d514b6062574930.pdf>

1	Ish joyini tayyorlash va uskunalarni joylashtirish (ishga kirishishdan oldin ish joyini to'g'ri tashkil etish va uskunalarni xavfsiz joylashtirish)	5 ball
2	Mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong'in xavfsizligi, shuningdek, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga qat'iy rioya qilish (shaxsiy himoya vositalari va xavfsizlik talablariga amal qilish).	5 ball
3	Topshiriqni bajarishda texnika va elektr xavfsizligi qoidalari talablariga to'liq rioya qilish (ish jarayonida belgilangan talablarga amal qilish).	5 ball
4	Topshiriqni bajarish uchun to'g'ri uskuna va asboblarni tanlash hamda ulardan to'g'ri foydalanish mahorati (asboblarni to'g'ri va samarali qo'llash hamda texnik talablarga mos asbob-uskunalarni to'g'ri aniqlash va tayyorlash).	10 ball
5	Texnologik jarayon ketma-ketligiga rioya qilish (ish jarayonini belgilangan texnologik talablarga muvofiq amalga oshirish).	10 ball
6	Ish tezligi va vaqtni samarali boshqarish (berilgan vaqt ichida ishni sifatli va to'liq bajarish).	5 ball
7	Texnik hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo'riqnomalar)dan foydalanish (berilgan texnik hujjatlar yoki chizmalarni to'g'ri o'qish va bajarishda qo'llash).	10 ball
8	Muammolarni aniqlash va bartaraf etish mahorati (ish jarayonida yuzaga kelgan nosozliklar yoki xatolarni mustaqil topish va tuzatish).	10 ball
9	Ish jarayonidagi mustaqillik va tashabbuskorlik (topshiriqni ortiqcha yordamsiz, mustaqil bajarish va kreativ yechim taklif qilish).	10 ball
10	Ish sifati va yakuniy natija (bajarilgan ishning aniqligi, chiroyliligi va me'yoriy talablarga mosligi).	30 ball

Kasbiy imtihonning nazariy qismi testdan iborat bo'lganda test natijasi yakuniy baho uchun asos qilib olinadi. Baholash vositalarida kasb (kvalifikatsiya)

xususiyatidan kelib chiqqan holda nazariy va amaliy bosqichlardagi baholash mezonlariga 30 foizgacha o'zgartirish kiritish mumkin. Bunda, belgilangan 3 ta mezonlar o'rniga boshqa mezonlar keltirilishi yoki mavjud 3 ta mezonlardagi ballar kamaytirilgan holda qo'shimcha 2 ta mezonlar va ballar qo'shilishi mumkin hamda jami ballar yig'indisi 100 ballni tashkil qilishi lozim. Shuningdek, kasbiy imtihonning **amaliy qismi uchun** belgilangan baholash mezonlarining 2,3,10-mezonlariga ballar qo'shgan holda o'zgartirish mumkin, lekin, belgilangan ballar kamaytirilmaydi.

Kasbiy imtihonning har ikkala bosqichi uchun yakuniy baholash mezonlari va ularga ajratilgan maksimal ballar baholash vositalarining baholash mezonlari qismida to'liq qayd qilinadi va tasdiqlanadi.

Kasbiy imtihonning amaliy qismi uchun aniq mezonlarni belgilash talabgorning nazariy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati va kasbiy mahoratini xolis baholash imkonini beradi. Shu bois uning baholash mezonlarini to'g'ri belgilash imtihon jarayonida adolat, shaffoflik va obyektivlikni ta'minlaydigan asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

5. Kasbiy imtihon natijalarini hisoblash va qayd qilish

Talabgorlar kasbiy imtihon oluvchi baholash komissiyasi tomonidan imtihonning baholash mezonlari bilan tanishtirilishi lozim. Shuningdek, Malakani baholash markazlari tomonidan kasbiy imtihon formati va shakli hamda baholash mezonlariga oid ma'lumotlar talabgorlarga rasmiy veb-sayti yoki Internet jahon axborot tarmog'i orqali ochiq holda e'lon qilinishi kerak.

Kasbiy imtihon natijalari 100 ballik tizim asosida baholanadi hamda kasbiy imtihondan minimal o'tish bali kasb (kvalifikatsiya) xususiyatlari va malaka darajasidan kelib chiqib, tarmoq kengashi tomonidan 56 balldan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Kasbiy imtihonning nazariy va amaliy shakllari uchun to'planadigan ball miqdori kasb (kvalifikatsiya) xususiyatlari, malaka darajasidan kelib chiqqan holda, tarmoq kengashi tomonidan belgilanadi hamda baholash vositalarida aks ettiriladi.

Baholash vositalari bo'yicha Tarmoq kengashi ekspertiza xulosasida kasbiy imtihonning nazariy va amaliy shakllari uchun to'planadigan ballar nisbatining kasb (kvalifikatsiya) xususiyatidan kelib chiqqan holda talabgorlar bilimi va malakasini baholashga muvofiqligi bo'yicha tavsif berilishi lozim.

Kasbiy imtihon natijalarini baholash mazkur baholash mezonlarida belgilangan talablar asosida baholash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Baholovchi ekspertlar reestriga kiritilgan, shuningdek, Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti tomonidan tashkil etiladigan kurslarda malaka oshirgan hamda uch yil mehnat stajiga ega bo'lgan kamida uch nafar oliy ma'lumotli ekspertlardan iborat tarkibda baholash komissiyasi tuziladi.

Malakani baholash markazi direktori va xodimlari kasbiy imtihonning tashkiliy masalalarida, natijalarni rasmiylashtirish va platformaga yuklashda baholash komissiyasiga ko'maklashadi. Ularning kasbiy imtihonni baholash jarayoniga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bunda malakani baholash markazlarida tegishli kasb (kvalifikatsiya) bo'yicha bir nechta baholash komissiyalari tuzilishi hamda bir nafar baholovchi ekspert bir nechta baholash komissiyalari tarkibida bo'lishi ham mumkin. Kasbiy imtihon jarayonida Respublika va tarmoq kengashlari hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti vakillari kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi mumkin. Ularning baholash komissiyasi qarorlariga ta'sir qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Baholash komissiyasi tomonidan kasbiy imtihonlardagi talabgorlar natijasi quyida keltirilgan jadvallarga muvofiq kasbiy imtihonlarda talabgorlar natijalarining qayd varaqalariga yoziladi.

**Kasbiy imtihonlarda talabgorlar natijalarining
QAYD VARAQUALARI
Nazariy qismning suhbat (og'zaki) shakli uchun
QAYD VARAQASI**

Talabgorning F.I.O:			
Kasb (kvalifikatsiya) nomi va darajasi:			
T/r	Mezonlar	Maksimal ball	Talabgorga qo'yilgan ball
1	Kasbga oid asosiy nazariy bilimlarini to'g'ri va to'liq ifodalash	15 ball	
2	Terminologiya va atamalardan to'g'ri foydalanish	10 ball	
3	Me'yoriy va huquqiy talablarni bilish	10 ball	
4	Ish jarayonidagi asosiy qoidalar va texnologiyalarni tushuntirish qobiliyati	10 ball	
5	Asbob-uskunalarining vazifasi va to'g'ri foydalanish qoidalarini bilish	10 ball	
6	Amaliy misollar keltirish va ularni tahlil qila olish	10 ball	

7	Kasbga oid hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo'riqnomalar)ni tushuntirib berish	10 ball	
8	Muammoli savollarga mantiqiy va asosli javob berish	10 ball	
9	Ish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishni bilish	10 ball	
10	Savollarga aniq, izchil va ishonchli javob berish	5 ball	
Jami ball:			
Baholovchi-ekspert: F.I.O		(imzo)	sana _____

**Nazariy qismning yozma shakli uchun
QAYD VARAQASI**

Talabgorning F.I.O:			
Kasb (kvalifikatsiya) nomi va darajasi:			
T/r	Mezonlar	Maksimal ball	Talabgorga qo'yilgan ball
1	Savollarga aniq va to'g'ri javob berish	15 ball	
2	Kasbga oid asosiy nazariy bilimlarni yozma ravishda to'liq ifodalash	10 ball	
3	Terminologiya va atamalardan to'g'ri foydalanish	10 ball	
4	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va qoidalarni yodda saqlash va yozmada to'g'ri keltirish	10 ball	
5	Ish jarayonidagi asosiy qadamlar va texnologiyalarni yozmada to'g'ri bayon etish	10 ball	
6	Amaliy misollar keltirish va ularni yozmada tahlil qilish	10 ball	

7	Muammoli savollarga mantiqiy va asosli javob yozish	10 ball	
8	Ish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilgan holda ularni bartaraf etishni bayon qilish	10 ball	
9	Kasbga oid hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo'riqnomalar)ni to'g'ri bayon etish	10 ball	
10	Yozma ishda umumiy uslub, aniqlik va ishonchli bayon	5 ball	
Jami ball:			
Baholovchi-ekspert: F.I.O		(imzo)	sana _____

**Kasbiy imtihonning amaliy qismi uchun
QAYD VARAQASI**

Talabgorning F.I.O:			
Kasb (kvalifikatsiya) nomi va darajasi:			
T/r	Mezonlar	Ballar	Talabgorga qo'yilgan ball
1	Ish joyini tayyorlash va uskunalarni joylashtirish	5 ball	
2	Mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong'in xavfsizligi, shuningdek, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablarga qat'iy rioya qilish	5 ball	
3	Topshiriqni bajarishda texnika va elektr xavfsizligi qoidalari talablariga to'liq rioya qilish	5 ball	
4	Topshiriqni bajarish uchun to'g'ri uskuna va asboblarni tanlash hamda ulardan to'g'ri foydalanish mahorati	10 ball	

5	Texnologik jarayon ketma-ketligiga rioya qilish	10 ball	
6	Ish tezligi va vaqtni samarali boshqarish	5 ball	
7	Texnik hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo'riqnomalar)dan foydalanish	10 ball	
8	Ish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishni bilish	10 ball	
9	Ish jarayonidagi mustaqillik va tashabbuskorlik	10 ball	
10	Ish sifati va yakuniy natija	30 ball	
Jami ball:			
Baholovchi-ekspert: F.I.O		(imzo)	sana _____

Mazkur qayd varaqalaridagi ballar 100 ballik tizimda har bir baholovchi-ekspert tomonidan mustaqil shakllantiriladi.

Talabgorning kasbiy imtihon nazariy va amaliy shakllari uchun olgan **yakuniy natijasi** esa quyidagi formulaga asosan amalga oshiriladi:

$$U_t = \frac{E_t * N_t}{100}$$

$$U_p = \frac{E_p * N_p}{100}$$

Bunda:

U_t – nazariy qism uchun yakuniy ball;

U_p – amaliy qism uchun yakuniy ball;

E_t – baholovchi-ekspert tomonidan talabgorga nazariy qism uchun qo'yilgan ball;

E_p – baholovchi-ekspert tomonidan talabgorga amaliy qism uchun qo'yilgan ball;

N_t – baholash vositasida nazariy qism uchun belgilangan nisbat (foiz);

Np – baholash vositasida amaliy qism uchun belgilangan nisbat (foiz);

Kasbiy imtihon natijasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2025-yil 17-iyundagi 369-sonli qarorning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan "Malakani baholash markazi to'g'risida namunaviy nizom" 4-ilovasiga muvofiq shaklda bayonnoma rasmiylashtiriladi va baholash komissiyasi a'zolari tomonidan tasdiqlanadi.

Bayonnomaga nazariy va amaliy qismlar uchun talabgorlarga har bir baholovchi ekspert tomonidan qo'yilgan **yakuniy ballar** yoziladi hamda ularning o'rtacha nisbati kasbiy imtihonning yakuniy natijasi hisoblanadi. Kasbiy imtihon uchun yakuniy natijani aniqlash quyida keltirilgan namuna asosida amalga oshiriladi:

Kasbiy imtihonning yakuniy natijasini aniqlash bo'yicha namuna

(quyida keltirilgan misol kasbiy imtihonning yakuniy natijasini aniqlash uchun namuna sifatida yozildi. Unda keltirilgan kasbiy imtihon nisbati va o'tish bali chegarasi ham misol tariqasida, tushunarli bo'lish uchun belgilangan va bu kasb bo'yicha yakuniy holatni anglatmaydi.)

Misol uchun: "UNG training" MCHJ malakalarni baholash markazi tomonidan Podstansiyalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor kasbi malaka darajasi 4 (3-razryad) bo'yicha ishlab chiqilgan baholash vositalarida kasbiy imtihonning nazariy shakliga **35 ball**, amaliy shakliga **65 ball** ajratilganligi belgilangan ya'ni nazariy va amaliy bosqichlar nisbati **35/65** (bu nisbat kasb (kvalifikatsiya) xususiyatidan kelib chiqqan holda turlicha belgilanishi mumkin). Shuningdek, kasbiy imtihondan o'tish bali chegarasi 70 va undan ortiq ball deb belgilangan (bunda ham kasb (kvalifikatsiya) xususiyatidan kelib chiqqan holda 56 balldan kam bo'lmagan turlicha ballni baholash vositalarida belgilash mumkin).

Hisoblash: Avvalo, baholash mezonlariga asosan 100 balldan har bir ekspert tomonidan talabgorga qo'yilgan ballar aniqlanadi.

6-jadval

Talabgorga nazariy bosqich uchun qo'yilgan ballar:	Talabgorga amaliy bosqich uchun qo'yilgan ballar:
1-ekspert – 68 ball	1-ekspert – 76 ball
2-ekspert – 71 ball	2-ekspert – 81 ball
3-ekspert – 63 ball	3-ekspert – 83 ball

Endi yuqorida keltirilgan formula bo'yicha belgilangan **nisbatga ko'ra** har bir ekspert tomonidan talabgorga qo'yilgan ballarning yakuniy natijasi aniqlanadi.

7-jadval

1-ekspert: $U_t=68*35/100=23,80$	1-ekspert: $U_p=76*65/100=49,4$
2-ekspert: $U_t=71*35/100=24,85$	2-ekspert: $U_p=81*65/100=52,65$
3-ekspert: $U_t=63*35/100=22,05$	3-ekspert: $U_p=83*65/100=53,95$

Nazariy va amaliy qismlar uchun yakuniy ballar **yaxlitlangan holda** kasbiy imtihon bayonnomasiga yoziladi. Nazariy bosqich testdan iborat bo'lsa, testdan olingan ball nazariy imtihonning yakuniy natijasi sifatida yoziladi.

Kasbiy imtihon natijasi bo'yicha

BAYONNOMA

_____-son

(talabgorning F.I.O.)

Malakani baholash markazi nomi:

Kasb (kvalifikatsiya) nomi va darajasi:

Kasbiy imtihon o'tkaziladigan sana:

(kun, oy, yil)

Kasbiy imtihon o'tkaziladigan joy (manzil):

Kasbiy imtihon natijalari:

T/r	Baholash komissiyasi a'zolari (F.I.O.)	Natija		
		Nazariy imtihon	Amaliy imtihon	Yakuniy ball
1.	Safarov Ramazon Odilovich	24	49	73
2.	Olimov Ural Bozorovich	25	53	78
3.	Saidakromov Jalil Choriyevich	22	54	76
Jami ballar yig'indisi		71	156	227
O'rtacha yakuniy ball		24	52	76

Kasbiy imtihon natijalarini tasdiqlash:

Komissiya raisi:

(F.I.O.)

(imzo)

Komissiya a'zolari:

(F.I.O.)

(imzo)

(F.I.O.)

(imzo)

Demak, talabgorning nazariy bosqich uchun to'plagan yakuniy bali **24 ball**, amaliy bosqich uchun **52 ball** bo'lib, kasbiy imtihon uchun to'plagan yakuniy natijasi **76 ballni** tashkil qilgan holda ushbu talabgor imtihondan **muvaffaqiyatli o'tgan hisoblanadi.**

Baholash komissiyasi a'zolari tomonidan bayonnomaga qo'yilgan ballar aniq, tushunarli va bo'yalmasdan yozilishi shart. Kasbiy imtihon natijalari uchun bayonnomalarni qayta rasmiylashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Bayonnomaning to'g'ri rasmiylashtirilishiga baholash komissiyasi javobgar hisoblanadi.

Bunda texnik xatolar (ma'lumotlarni noto'g'ri yozish, ballarni qo'shishdagi xatolik)ga yo'l qo'yilsa, qayta rasmiylashtirish Komissiya qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.

Kasbiy imtihon natijalari baholash komissiyasi tomonidan qo'yilgan nazariy va amaliy imtihonlar yakuniy ballar yig'indisining o'rtacha nisbatiga ko'ra belgilanadi. Ushbu yakuniy ballarning **o'rtacha yig'indisi** talabgorning yakuniy imtihon natijasi hisoblanadi. Har bir talabgor uchun kasbiy imtihon natijasi bo'yicha bayonnoma shakllantiriladi va baholash komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Har bir talabgor uchun shakllantirilgan bayonnomaga nazariy (mavjud bo'lsa) va amaliy qismlar uchun baholangan qayd varaqalari ilova qilingan holda besh yil davomida malakani baholash markazida talabgorning boshqa ma'lumotlari bilan birgalikda saqlanadi.

Kasbiy imtihon natijalari Malakani baholash markazi xodimlari tomonidan talabgorlarning kasbiy imtihon bayonnomasi ilova qilingan holda Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasiga kiritiladi va baholash komissiyasi a'zolari tomonidan platformada elektron tasdiqlanadi. Malakani baholash markazi kasbiy imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabgorlarga imtihon yakunlangan kundan boshlab besh ish kuni ichida QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan malaka sertifikati yoki malaka pasportini platforma orqali elektron shaklda talabgorga yuborishi belgilangan.

Baholash vositalarining maxfiyligini ta'minlash. Tasdiqlangan baholash vositalari va ularda belgilangan kasbiy imtihon materiallarining mutassaddilar tomonidan maxfiyligi ta'minlanishi shart.

Maxfiy ma'lumotlar tarkibiga kasbiy imtihon topshiriqlari, test savollari, baholash mezonlari, etalon javoblar, texnik yo'riqnomalar, ekspertiza xulosalari va platformalarga yuklangan tasdiqlangan imtihon materiallari kiradi.

Maxfiy ma'lumotlardan foydalanish huquqi faqatgina vakolatli shaxslar (Markaz, Tarmoq kengashi, Institut xodimlari) va ekspertizadan o'tkazgan ekspertlarga beriladi.

Maxfiy ma'lumotlarni qabul qilgan har bir shaxs yoki tashkilot: mazkur ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etmaslik;

- ✓ elektron va qog'oz formatdagi nusxalarini maxsus himoyalangan joyda saqlash;
- ✓ ma'lumotlardan faqat rasmiy maqsadda foydalanish;
- ✓ imtihon jarayonida faqat zarur bo'lgan qismlardan foydalanish bo'yicha majburiyat oladi.


Baholash vositalari elektron tarzda shifrlangan va parol bilan himoyalangan, faqat vakolatli foydalanuvchilar kirishi mumkin bo'lgan tizimda saqlanishi, shuningdek, qog'oz shaklidagi hujjatlar maxsus shkaflar yoki arxivlarda joylashtirilishi shart.

Maxfiy ma'lumotlar bilan qonunbuzarlik tarzida muomala qilgan, ularni tarqatgan yoki ruxsatsiz foydalangan shaxslar amaldagi qonunchilikka muvofiq intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Xulosa

Kasbiy imtihonlarni samarali tashkil qilish va ular orqali mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning eng asosiy shartlaridan biri – bu baholash mezonlarini to‘g‘ri ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdir. Baholash mezonlari kasbiy imtihon jarayonining adolatli, shaffof va xolis o‘tishini ta’minlaydi. Shu bois ularni ishlab chiqish nafaqat imtihon jarayoni, balki butun malakani baholash tizimining mustahkam poydevorini yaratadi.

Baholash mezonlarining asosiy ahamiyati, birinchidan, baholash mezonlari imtihon jarayonida yagona standartni belgilaydi. Turli imtihon markazlarida yoki turli sohalarda talabgorlar aynan bir xil mezonlar asosida baholanadi. Bu esa natijalarning taqqoslanishi, adolatli bo‘lishi va ishonchliligi uchun zamin yaratadi.



Ikkinchidan, baholash mezonlari orqali imtihon jarayonida shaffoflik va xolislik ta’minlanadi. Talabgorlar oldindan qaysi bilim va ko‘nikmalar tekshirilishi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu ularning tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil qilishga yordam beradi hamda natijalar yuzasidan bahs va e’tirozlar ehtimolini kamaytiradi.

Uchinchidan, mezonlarni ishlab chiqish kasbiy standartlar bilan uzviy bog‘liq. Har bir kasb uchun davlat yoki sohaviy standartlar mavjud bo‘lib, ular mutaxassisdan

qaysi bilim va ko'nikmalar talab etilishini belgilaydi. Baholash mezonlari aynan shu standartlar asosida ishlab chiqilganda, imtihon natijalari mehnat bozoridagi real talablarga uyg'un bo'ladi.

Kasbiy imtihonlar ikki asosiy qismdan iborat: nazariy va amaliy. Nazariy qismda talabgorning bilim chuqurligi, mantiqiy fikrlay olishi, tushunchalarni izchil bayon etishi baholanadi. Amaliy qismda esa topshiriqlarni bajarish mahorati, asbob-uskunalaridan xavfsiz va to'g'ri foydalanish, ish samaradorligi va natija sifati mezon sifatida belgilanadi.

Shu jihatdan qaraganda, baholash mezonlarini ishlab chiqishda bilim va amaliy ko'nikmalar uyg'unligini ta'minlash juda muhim. Faqat nazariy bilimga tayangan mutaxassis amaliyotda qiynalishi mumkin, yoki faqat amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassis nazariy asoslarsiz muammolarni hal qilishda qiynalishi mumkin. Shu bois mezonlar ham nazariy, ham amaliy jihatlarni qamrab olishi shart.

Baholash mezonlari nafaqat imtihon jarayonida, balki ta'lim tizimi va mehnat bozorida ham katta ahamiyatga ega. Chunki, aniq mezonlar asosida olingan natijalar ta'lim muassasalaridagi o'quv dasturlarini tahlil qilish, ularni takomillashtirish va zamonaviy talablarga uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ish beruvchilar uchun ham imtihon natijalari ishonchli ko'rsatkich vazifasini bajaradi.

Zamonaviy mehnat bozori globallashib borayotgan sharoitda baholash mezonlarini xalqaro standartlarga uyg'un holda ishlab chiqish muhim. Bu milliy malakalar tizimining xalqaro maydonda tan olinishiga xizmat qiladi. Masalan, Yevropadagi yoki Osiyo mamlakatlarida qo'llaniladigan mezonlarga uyg'un mezonlar ishlab chiqilsa, mahalliy mutaxassislar xorijiy bozorlarda ham o'z malakasini namoyish etishi mumkin bo'ladi.

Qisqacha aytganda, kasbiy imtihonning baholash mezonlarini ishlab chiqish:

- | | |
|--|--|
| | <ul style="list-style-type: none">▪ imtihon jarayonida adolat va shaffoflikni ta'minlaydi; |
| | <ul style="list-style-type: none">▪ talabgorning haqiqiy kasbiy salohiyatini aniq baholashga xizmat qiladi; |

- | | |
|--|---|
| | ▪ ta'lim tizimi sifatini tahlil va takomillashtirish imkonini yaratadi; |
| | ▪ mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi; |
| | ▪ milliy malakalar tizimining xalqaro nufuzini oshiradi. |

Demak, baholash mezonlarini ishlab chiqish bu oddiy metodik jarayon emas, balki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim kadrlarning bilimini haqqoniy aniqlashga xizmat qiluvchi muhim vazifalardan biridir. Uning to'g'ri yo'lga qo'yilishi orqali talabgorlar xolis baholanadi, ta'lim va mehnat bozori uyg'unligi ta'minlanadi va jamiyatda haqiqiy kasbiy malakaga ega, raqobatbardosh mutaxassislar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 30.09.2024-yildagi, PQ-345-son qarori. <https://lex.uz/docs/7132752>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 17.06.2025-yildagi 369-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/7577924>
3. D.Gosling, J. Moon. How To Use Learning Outcomes and Assessment Criteria. SEEC. <https://scribd.com/document/228752475/How-to-Use-Learning-Outcomes-and-Assessment-Criteria>
4. Glossary: Evaluation criteria: Overview, definition, and example. <https://www.cobrief.app/resources/legal-glossary/evaluation-criteria-overview-definition-and-example/>
5. Ibrahim M. Achieving Clear Requirements and Objective Assessment: The Benefits of Acceptance and Evaluation Criteria in Business Analysis. <https://www.linkedin.com/pulse/achieving-clear-requirements-objective-assessment-benefits-mar-o>
6. OECD: DAC Guidelines and Reference Series. Quality Standards for Development Evaluation. 2010. <https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/development-co-operation-evaluation-and-effectiveness/evaluation-criteria.html>
7. Г. П. Синицына. Профессиональный экзамен: подходы к структуре и содержанию. Гуманитарные исследования, 2015. № 5 (9) стр 89. <https://cyberleninka.ru/article/n/professionalnyy-ekzamen-podhody-k-strukture-i-soderzhaniyu/viewer>
8. Лаврентева Е.А., Афолина К.Д. Организационно-теоретические основы независимой оценки квалификации работников. БИТ 2022 Том 6 № 1 (21). Ст-38. <https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsionno-teoreticheskie-osnovy-nezavisimoy-otsenki-kvalifikatsii-rabotnikov>
9. Разработка и применение оценочных средств с учетом проведения профессиональных экзаменов с применением цифровых технологий: сборник методических рекомендаций – М. АНО «Национальное агентство развития квалификаций», 2021. Ст-30. <https://kos-nark.ru/storage/app/uploads/public/615/aef/7d5/615aef7d514b6062574930.pdf>

ILOVALAR

“Kasbiy imtihonlar bo‘yicha asosiy
baholash mezonlari” uslubiy qo‘llanmasiga
1-ILOVA

Kasbiy imtihon nazariy qismining suhbat (og‘zaki) shakli uchun BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Mezonlar	Maksimal ball
1	Kasbga oid asosiy nazariy bilimlarini to‘g‘ri va to‘liq ifodalash	15 ball
2	Terminologiya va atamalardan to‘g‘ri foydalanish	10 ball
3	Me‘yoriy va huquqiy talablarni bilish	10 ball
4	Ish jarayonidagi asosiy qoidalar va texnologiyalarni tushuntirish qobiliyati	10 ball
5	Asbob-uskunalarining vazifasi va to‘g‘ri foydalanish qoidalarini bilish	10 ball
6	Amaliy misollar keltirish va ularni tahlil qila olish	10 ball
7	Kasbga oid hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo‘riqnomalar)ni tushuntirib berish	10 ball
8	Muammoli savollarga mantiqiy va asosli javob berish	10 ball
9	Ish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishni bilish	10 ball
10	Savollarga aniq, izchil va ishonchli javob berish	5 ball

**Kasbiy imtihon nazariy qismining yozma shakli uchun
BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Mezonlar	Maksimal ball
1	Savollarga aniq va to‘g‘ri javob berish	15 ball
2	Kasbga oid asosiy nazariy bilimlarni yozma ravishda to‘liq ifodalash	10 ball
3	Terminologiya va atamalardan to‘g‘ri foydalanish	10 ball
4	Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va qoidalarni yodda saqlash va yozmada to‘g‘ri keltirish	10 ball
5	Ish jarayonidagi asosiy qadamlar va texnologiyalarni yozmada to‘g‘ri bayon etish	10 ball
6	Amaliy misollar keltirish va ularni yozmada tahlil qilish	10 ball
7	Muammoli savollarga mantiqiy va asosli javob yozish	10 ball
8	Yozuvning tuzilishi va izchilligi	10 ball
9	Kasbga oid hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo‘riqnomalar)ni to‘g‘ri bayon etish	10 ball
10	Yozma ishda umumiy uslub, aniqlik va ishonchli bayon	5 ball

Kasbiy imtihonning amaliy qismi uchun BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Mezonlar	Ballar
1	Ish joyini tayyorlash va uskunalarni joylashtirish (ishga kirishishdan oldin ish joyini to‘g‘ri tashkil etish va uskunalarni xavfsiz joylashtirish)	5 ball
2	Mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong‘in xavfsizligi, shuningdek, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga qat‘iy rioya qilish (shaxsiy himoya vositalari va xavfsizlik talablariga amal qilish).	5 ball
3	Topshiriqni bajarishda texnika va elektr xavfsizligi qoidalari talablariga to‘liq rioya qilish (ish jarayonida belgilangan talablarga amal qilish).	5 ball
4	Topshiriqni bajarish uchun to‘g‘ri uskuna va asboblarni tanlash hamda ulardan to‘g‘ri foydalanish mahorati (asboblarni to‘g‘ri va samarali qo‘llash hamda texnik talablarga mos asbob-uskunalarni to‘g‘ri aniqlash va tayyorlash).	10 ball
5	Texnologik jarayon ketma-ketligiga rioya qilish (ish jarayonini belgilangan texnologik talablarga muvofiq amalga oshirish).	10 ball
6	Ish tezligi va vaqtni samarali boshqarish (berilgan vaqt ichida ishni sifatli va to‘liq bajarish).	5 ball
7	Texnik hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo‘riqnomalar)dan foydalanish (berilgan texnik hujjatlar yoki chizmalarni to‘g‘ri o‘qish va bajarishda qo‘llash).	10 ball
8	Muammolarni aniqlash va bartaraf etish mahorati (ish jarayonida yuzaga kelgan nosozliklar yoki xatolarni mustaqil topish va tuzatish).	10 ball
9	Ish jarayonidagi mustaqillik va tashabbuskorlik (topshiriqni ortiqcha yordamsiz, mustaqil bajarish va kreativ yechim taklif qilish).	10 ball
10	Ish sifati va yakuniy natija (bajarilgan ishning aniqligi, chiroyliligi va me‘yoriy talablarga mosligi).	30 ball

**Nazariy qismning suhbat (og‘zaki) shakli uchun
QAYD VARAQASI**

Talabgorning F.I.O:			
Kasb (kvalifikatsiya) nomi va darajasi:			
T/r	Mezonlar	Maksimal ball	Talabgorga qo‘yilgan ball
1	Kasbga oid asosiy nazariy bilimlarini to‘g‘ri va to‘liq ifodalash	15 ball	
2	Terminologiya va atamalardan to‘g‘ri foydalanish	10 ball	
3	Me‘yoriy va huquqiy talablarni bilish	10 ball	
4	Ish jarayonidagi asosiy qoidalar va texnologiyalarni tushuntirish qobiliyati	10 ball	
5	Asbob-uskunalarining vazifasi va to‘g‘ri foydalanish qoidalarini bilish	10 ball	
6	Amaliy misollar keltirish va ularni tahlil qila olish	10 ball	
7	Kasbga oid hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo‘riqnomalar)ni tushuntirib berish	10 ball	
8	Muammoli savollarga mantiqiy va asosli javob berish	10 ball	
9	Ish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishni bilish	10 ball	
10	Savollarga aniq, izchil va ishonchli javob berish	5 ball	
Jami ball:			
Baholovchi-ekspert: F.I.O		(imzo)	sana _____

**Nazariy qismning yozma shakli uchun
QAYD VARAQASI**

Talabgorning F.I.O:			
Kasb (kvalifikatsiya) nomi va darajasi:			
T/r	Mezonlar	Maksimal ball	Talabgorga qo'yilgan ball
1	Savollarga aniq va to'g'ri javob berish	15 ball	
2	Kasbga oid asosiy nazariy bilimlarni yozma ravishda to'liq ifodalash	10 ball	
3	Terminologiya va atamalardan to'g'ri foydalanish	10 ball	
4	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va qoidalarni yodda saqlash va yozmada to'g'ri keltirish	10 ball	
5	Ish jarayonidagi asosiy qadamlar va texnologiyalarni yozmada to'g'ri bayon etish	10 ball	
6	Amaliy misollar keltirish va ularni yozmada tahlil qilish	10 ball	
7	Muammoli savollarga mantiqiy va asosli javob yozish	10 ball	
8	Ish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilgan holda ularni bartaraf etishni bayon qilish	10 ball	
9	Kasbga oid hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo'riqnomalar)ni to'g'ri bayon etish	10 ball	
10	Yozma ishda umumiy uslub, aniqlik va ishonchli bayon	5 ball	
Jami ball:			
Baholovchi-ekspert: F.I.O		(imzo)	sana _____

Kasbiy imtihonning amaliy qismi uchun QAYD VARAQASI

Talabgorning F.I.O:			
Kasb (kvalifikatsiya) nomi va darajasi:			
T/r	Mezonlar	Ballar	Talabgorga qo‘yilgan ball
1	Ish joyini tayyorlash va uskunalarni joylashtirish	5 ball	
2	Mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong‘in xavfsizligi, shuningdek, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablarga qat’iy rioya qilish	5 ball	
3	Topshiriqni bajarishda texnika va elektr xavfsizligi qoidalari talablariga to‘liq rioya qilish	5 ball	
4	Topshiriqni bajarish uchun to‘g‘ri uskuna va asboblarni tanlash hamda ulardan to‘g‘ri foydalanish mahorati	10 ball	
5	Texnologik jarayon ketma-ketligiga rioya qilish	10 ball	
6	Ish tezligi va vaqtni samarali boshqarish	5 ball	
7	Texnik hujjatlar (sxemalar, chizmalar, texnologik kartalar va yo‘riqnomalar)dan foydalanish	10 ball	
8	Ish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishni bilish	10 ball	
9	Ish jarayonidagi mustaqillik va tashabbuskorlik	10 ball	
10	Ish sifati va yakuniy natija	30 ball	
Jami ball:			
Baholovchi-ekspert: F.I.O		(imzo)	sana _____